

## BADIIY MATNNI TARJIMA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Go'zal SOBIROVA**

Magistratura bosqichi 14- guruh talabasi  
Ozbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti  
[yaguzalya8111@gmail.com](mailto:yaguzalya8111@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgi vaqtda jahon tarjimashunosligida bir qator muhim yutuqlar qo'lga kiritilgan bo'lib, ular tarjimaning nazariy va amaliy jabhalarini sezilarli darajada boyitdi. Xususan, korpus lingvistikasiga asoslangan tadqiqotlar tarjimaviy me'yorlarni aniqlashni yengillashtirdi, kognitiv yondashuvlar esa tarjimonning fikrlash jarayonini ilmiy asosda o'rganish imkonini yaratdi. Shu bilan birga, tarjimada madaniy omilning o'рни kengayib, madaniy interpretatsiyamasalalari dolzarblik kasb etdi. Mashina tarjimasi va neyron tarjimaviy modellar ham zamonaviy tarjimashunoslikning yangi bosqichini belgilab berdi. Kelgusi vazifalar sifatida tarjimada inson omilini yanada chuqurroq o'rganish, turli tillar va madaniyatlar o'rtasidagi semantik tenglik muammolarini hal etish, shuningdek, sun'iy intellekt bilan inson tarjimoni o'rtasida samarali hamkorlik modelini ishlab chiqish kabi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi. Umuman olganda, tarjimashunoslik global muloqot va madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlovchi strategik fan sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu maqolada tarjimashunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblangan badiiy matnni tarjima qilishning nazariy asoslari, tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik masalasi, semantik-stilistik qatlamlar, madaniy birliklarni tarjima qilish, tarjimon kompetensiyasi xususidagi zamonaviy nazariy yondashuvlarmohiyati yoritildi.

**Kalit so'zlar:** Badiiy matn tarjimasi, semantik-stilistik qatlamlar, tarjimon kompetensiyasi, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjimashunoslikning Skopos nazariyasi, tarjimashunoslikka kognitiv yondashuv, tarjimashunoslikka diskursiv yondashuv, tarjimashunoslikning madaniy-semiotik nazariyasi.

**KIRISH.** Badiiy matn tarjimasi tarjimashunoslikning eng murakkab va mas'uliyatli yo'nalishlaridan biridir. Chunki badiiy asarlar tarjimasida nafaqat manba matnidagi xabarni boshqa tilga o'girish, balki uning estetik ta'sir darajasini saqlab qolish, asarda ifodalangan madaniy qadriyatlar mohiyatini yoritib berish, muallifning badiiy dunyoqarashini to'g'ri idrok qilish va uni o'quvchiga yetkaza olish, tilning nozik qatlamlarining o'zga tildagi muqobillarini topa olish ham taqozo etiladi.

Bugungi tarjimashunoslikda Skopos nazariyasi, kognitiv yondashuv, diskursiv yondashuv, madaniy-semiotik nazariya muhim ahamiyat kasb etadi. [5, 41] Skopos nazariyasining mohiyati shundaki, ushbu yondashuv tarjimoni ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi sifatida ko'rib chiqadi va diqqatni an'anaviy ekvivalentlik mezonlaridan tarjima funksionalligi va pragmatikasiga o'tkazadi. Tarjimon manba matnini maqsadli auditoriyaning muayyan muhitdagi vazifalariga mos ravishda moslashtiradi. Skopos nazariyasiga asoslangan yondashuvda tarjima maqsadli harakat sifatida qaraladi, unda tarjimon ma'lum bir muammoni hal qilish uchun maqsadli matn yaratadi. Skoposning moslashuvchanligiga qaramay, tarjimada aynanlik tamoyilisaqlanib qoladi,



ya'ni tarjimon asl matn muallifining madaniy me'yorlari va niyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi kerak bo'ladi.

Tarjimaga kognitiv yondashuvda esa tarjima mentaljarayon sifatida baholanadi. Bunday yondashuvda tarjimon manba matnning to'g'ri idrok qilishi muhim. Aytish joizki, tarjimon matnning tarjima qilishida qanday shaklni tanlamasin, uning asosiy, o'zak mazmunini saqlab qolishi lozim.

Tarjimaga diskursiv yondashuvda tarjima obyekti faqat matn emas, balki muloqot jarayoni sifatida ham qaraladi. Ushbu jarayonda kontekst, maqsad, auditoriya, ijtimoiy munosabatlar, janr kabi omillar muhim hisoblanadi. Tarjimon na faqat ma'noni, balki diskurs vazifasini – matnning jamiyatdagi roli xususidagi mazmunni ham saqlashi kerak.

Tarjimashunoslikning madaniy-semiotik nazariyasida matnga madaniy belgilar tizimi, har bir so'z va obraz esa madaniy semiotikaning bir qismi sifatida qaraladi. Bunda tarjimaning vazifasi madaniy belgilar, realiyalar, metaforalar, urf-odatlar va ramzlarni to'g'ri tarzda yangi madaniyatga ko'chirishdan iboratdir. Ushbu nazariya namoyandalari tarjimonni ijodiy interpretatsiya sifatida baholab, tarjimon tarjima matnda uz "izi", ya'ni uslubini namoyon qilishi mumkin deb hisoblaydilar.[3, 67]

Qayd etilgan nazariyalarning tarjimonning ko'p qirrali o'zida lisoniy va nolisoniy omillar (kognitiv, madaniy, psixologik, ideologik) ni mujassam etgan jarayon ekanini ko'rsatadi.

**ASOSIY QISM.** Ma'lumki, badiiy tarjima – bu badiiy matnning mazmuni, shakli, obrazlilik, uslubi va muallifning estetik niyatlarini boshqa tilga o'tkazish jarayonidir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u faqat axborot uzatmaydi, balki asarning badiiy-estetik qiymatini ham qayta yaratadi. Badiiy tarjimada ijodkorlik, til sezgisi, madaniy kompetensiya katta ahamiyat kasb etadi. Tarjimonning nazariy asoslari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pragmatika, semantika, madaniyatshunoslik va psixolingvistika kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Tarjima jarayoni ikki tilli kommunikatsiya sifatida baholanadi va unda manba matn bilan tarjima matn o'rtasidagi muvofiqlik darajasi mezon bo'lib xizmat qiladi. Badiiy tarjimada ekvivalentlik – mazmun, shakl, uslub va ta'sir birligini eng yuqori darajada saqlashdir. Adekvatlik esa tarjima matnining kommunikativ vazifani to'liq bajarishi bilan bog'liq. Badiiy tarjimada to'liq ekvivalentlikka erishish qiyin, shuning uchun funksional-madaniy ekvivalentlik muhim o'rin tutadi.

Badiiy matn ko'p qatlamli bo'lib, unda quyidagi qatlamlar mavjudligi kuzatiladi:

- denotativ ma'no
- konnotativ ma'no
  - obrazlilik va ramziylik
- stilistik bo'yoqlar
- subtekst va kontekst .[1,89]

Bularning barchasini tarjimada qayta yaratish tarjimon oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Badiiy obrazlilikni tarjima qilish muammolari shundaki, metafora, epitet, metonimiya, jonlantirish kabi badiiy tasvir vositalarini boshqa tilga o'girish ijodiy yondashuvni talab qiladi. Ba'zan ular to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinadi, ba'zan esa funksional analog (o'xshashlik) qidiriladi. Asl mazmunni saqlagan holda badiiy ta'sirni yo'qotmaslik tarjimon mahoratini ko'rsatadi.

Badiiy matnning tarjima qilish muammolaridan yana biri milliy-madaniy komponentlarni tarjima qilish bilan bog'liq. Milliy kolorit, etnomadaniy birliklar, urf-

odatlar, realiyalar badiiy tarjimaning eng muhim muammolaridan biridir. Madaniy soʻzlar toʻgʻridan toʻgʻri tarjima qilinmasligi mumkin. Tarjimon bunda quyidagi yondashuvlardan foydalanadi:

- transkripsiya
- tavsifiy tarjima
- kontekstual moslashtirish
- madaniy ekvivalentlar izlash

Manba matndagi idiomalar, metaforalar va frazeologizmlarni tarjima qilish ham tarjimondan yuqori malakani talab etadi. Frazeologizmlar tilning milliy ruhini aks ettiradi, shuning uchun ularni tarjima qilishda semantik ekvivalentlik yetarli boʻlmaydi. Bunda uslubiy boʻyoqlar, obrazlilik, konnotatsiya saqlanishi lozim. Tarjimon baʼzan frazeologik analog, baʼzan esa tavsifiy taʼrifdan foydalanadi.

Tarjima jarayonida kontekst va subtekstning alohida oʻrni bor. Kontekst badiiy matnni toʻgʻri talqin qilishning asosiy omilidir. Subtekst esa yashirin maʼno va muallifning niyatini ifodalaydi. Ularni tushunmasdan qilinadigan tarjima semantik noaniqliklarga olib keladi.

Badiiy matnni tarjima qilishda tarjimon kompetensiyasi va ijodkorlik omili oʻta muhim. Badiiy asarlar tarjimonilingvistik kompetensiya, madaniy kompetensiya, adabiy kompetensiya, pragmatik kompetensiya, ijodiy tafakkur kompetensiyalariga ega boʻlishi zarur. Tarjimon nafaqat matnni tarjima qiladi, balki uni qayta yaratadi ham.

Maʼlumki, badiiy matnda muayyan kamchiliklarga yoʻl qoʻyiladi. Mutaxassislar bunday xatolar sirasiga semantik xatolar, stilistik mos kelmaslik, madaniy noaniqliklar, obrazning yoʻqolishi, soʻzma-soʻz tarjimaning haddan ziyod koʻpayib ketishi kabilarni kiritadilar. [4,74] Bunday xatolarni bartaraf etishning eng muhim yoʻllari matnni chuqur tahlil qilish, kontekstni toʻgʻri anglash va ijodiy yondashuvdir.

Badiiy tarjima oʻziga xos kommunikativ-pragmatik xususiyatlarga ham ega boʻladi. Har bir badiiy asar oʻz davri, oʻquvchisi va muallifi uchun maxsus kommunikativ vazifani bajaradi. Tarjima esa bu vazifani boshqa madaniyatga mos holda qayta yaratadi. Bunda eng muhimi shundaki, tarjimon matnning pragmatik taʼsirini saqlab qolish kerak.

**XULOSA.** Badiiy asar tili tarjimasini mukammallashtirish uchun bir qator nazariy va amaliy vazifalarni hal etish zarur. Nazariy jihatdan, avvalo badiiylikning tabiati, obrazlilik vositalari, intertekstual ishoralar va muallif uslubining asliyatda tutgan oʻrnini aniq belgilash muhim. Shu bilan birga, tarjimada ekvivalentlikka erishish, yaʼni denotativ, konnotativ va pragmatik maʼnolarni bir vaqtda saqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlar talab etiladi. Madaniy kodlarni oʻrganish va ularni qabul qiluvchi tilda adekvat ifoda etish ham nazariy muammolar qatoriga kiradi. Amaliy jihatdan esa obrazli ifoda, yumor va milliy realiyalarni tarjima qilishda toʻgʻri strategiyani tanlash, lokalizatsiya va adaptatsiya tamoyillarini takomillashtirish muhimdir. Shuningdek, tarjimonning uslubiy mahoratni oshirishi va tahrir jarayonlarini professionallashtirish badiiy tarjimaning sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Badiiy tarjimani rivojlantirish borasida tadqiqotchilar oldida qator dolzarb vazifalar turibdi. Avvalo, badiiy matnning semantik va estetik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularni tarjimada qayta yaratishning ilmiy modellarini ishlab chiqish talab etiladi. Shuningdek, tarjimada ekvivalentlikning yangi turlarini, xususan, emotsional va pragmatik tenglikni taʼminlaydigan nazariy yondashuvlarni takomillashtirish muhimdir. Badiiy



tarjimada madaniy omil ustuvor bo'lgani uchun realiyalar, milliy urf-odatlar va intertekstual ishoralarni qabul qiluvchi tilda adekvat ifoda etishga doir ilmiy tamoyillar yanada puxta ishlab chiqilishi kerak. Tadqiqotchilar oldidagi yana bir vazifa – tarjimonning kognitiv jarayonlarini o'rganish, uning ijodiy fikrlash mexanizmlarini modellashtirishdir[2,90]. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asrida mashina tarjimasi va inson tarjimonining o'zaro hamkorligini ilmiy asosda o'rganish, gibrid tarjimaviy yondashuvlarni ishlab chiqish ham muhim yo'nalishlardan hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baker, Mona (ed.). Routledge Encyclopedia of Translation Studies. – London/New York: Routledge, 1998.– 654 p.
2. Bassnett, Susan. Translation Studies. 3rd ed.–London/New York: Routledge, 2002. – 176 p.
3. Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – Москва: Высшая школа, 1990.–253 с. (Komissarov, V. N. Theory of Translation (Linguistic Aspects). Moscow: Vysshaya Shkola, 1990. 253 pp.)
4. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating.–Leiden: E. J. Brill, 1964. –331 p.
5. Newmark, Peter. A Textbook of Translation.– New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.